

## **DAVLATLARNING TANAZZULIDA OILANING O'RNI**

**Avazbekov Faxriddin**

*Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruvi va Texnologiyalar Universiteti*

*Xalqaro Munosabatlar 2 - bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlatlarning tanazzuliga olib keluvchi omillar orasida oila institutining ahamiyati chuqr tahlil qilingan. Muallif Avazbekov Faxriddin jamiyat, shaxs va davlat o'rtasidagi uzviy aloqani asos qilib olgan holda, ayniqsa oila institutining yemirilishi davlat tanazzulining boshlang'ich nuqtasi bo'lishi mumkinligini asosli dalillar bilan yoritadi. Maqolada Yevropa mamlakatlaridagi demografik muammolar, gumanizm, gender tengligi, kapitalistik rivojlanish va diniy qadriyatlarning susayishi kabi jarayonlarning davlat tuzilmasiga salbiy ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Hantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" asari misolida Yevropa va Sharq sivilizatsiyalarining ijobiy va salbiy jihatlari taqqoslanadi. Muallif global miqyosda oila institutini mustahkamlash davlatning barqarorligi va uzoq umr ko'rishining asosi ekanini ta'kidlab, xalqning rolini davlat mustahkamligidagi markaziy omil sifatida ko'rsatadi

**Kalit so'zlar;** Jamiyat, davlat, Farobi, oila instituti, Hantington,

### **Kirish**

Xalqaro munosabatlarni o'rganar ekanmiz albatta bir qancha nozik nuqtalarga e'tibor qaratishimiz zarur. Xalqaro munosabatlar subyekti bo'lган – shaxs, jamiyat, davlatning bir-biriga bo'lган munosabatlari, ular o'rtasidagi uzviylik, bog'liqlilikni ta'minlash bizning oldimizdagi muhim masalalardan biridir. Bugungi xalqaro munosabatlardagi anarxik holat, bo'layotgan voqeliklarning tub zamirida mana shu uchta subyektlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashdagi muommolar asosiy o'rinn kasb etadi. Avvalo shaxs, so'ng jamiyat va davlatning chuqr tarixiy, falsafiy, siyosiy tahlili, bugungi mavzuni yoritishda bizga asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

### **Asosiy qism**

Tarixga nazar tashlasak o'z davrining buyuk imperiyalari, qudratli davlatlari va ular haqidagi tarixiy shakllangan tasurotlar, u davlatlarni nima va qandey kuch yoki bo'lmasam qandey siyosiy tizim va qandey mafkura kuchli qildi degan savolni albatta tug'diradi. Davlatning uzoq yashab qolish qobiliyati uning iqtisodiy salohiyati natijasimi yoki siyosiy salohiyoti natijasimi degan savol ham tug'iladi. Bunga xar tomonlama turlicha yondashish mumkin va bizning fikrimizcha davlatlarning uzoq muddatli yashab qolishida ijtimoiy muammolarning tizimli xal qilinishi, jamiyat hayoti barqaror xarakatda bo'lishi, oila

institutining yaxshi ishlashi sababchidir. Bugun Yevropa davlatlariga nazar tashlasak oila instituti ishlamasligi, butun insoniyatga yod bo'lgan g'oyalarning yevropa bo'ylab erkin yoyilishi, kapitalizim gurkirab rivojlanishi yevropada kelgusi o'n yilliklarda demografik muammoni juda ham jiddiy oqibatlarga sababchi bo'lismiga olib keladi. Yevropadagi jamiyatning bugungi kundagi og'ir ahvoli, qaysi ma'nodaki madaniy ma'rifiy hamda g'oyaviy og'ir ahvoldaligi uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa bir qancha omillariga jiddiy ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi. Davlatning soda tuzilishi qandey bo'ladi? Birinchi shaxs, oila, hamda bir qancha oilalar yig'indisi bu jamiyatlarni, jamiyatlar yig'indisi esa davlatni tashkil qiladi. Xususan shaxslarning g'oyasidagi o'zgarishlar, shaxslarning mafkurasidagi o'zgarishlar, ularning madaniyatidagi, kundalik turmushidagi o'zgarishlar bevosita oilaga, bevosita jamiyatga va bevosita davlatga ta'sir o'tkazadi. Xar bir shaxsning xarakteri – Davlat xarakterini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan davlat manfaati uchun xar bir shaxsning dunyoqarashi, uning fikrlashli va uning mafkuraviy shakllanishi muhim tarkibiy qism xisoblanadi. Davlatlar tanazulining asosiy sabab nima? Bizning fikrimizcha davlatlar qachon tanazullga yuz tutadi, qachonki davlat ijtimoiy soha qolib, shaxs qolib, oila qolib, siyosatga, iqtisodga va boshqalarga jiddiy e'tiborini qaratsa bu davlatni tanazzulga yuz tutishining ilk bosqichi sanaladi. Masalan Yevropani misol qilib oladigan bo'lsak, oila institutining yo'q bo'lib ketishi arafasidaligi yevropada juda katta salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. oilaning yo'q bo'lismiga nima sabab? e'tibor qaratsak dunyoda ko'payish darajasi qanday davlatlarda yuqori, aholi turmush tarzi o'rtacha bo'lgan va undan kam bo'lgan davlatlarda aholi ko'payishi yuqori (Markaziy Osiyo, Afrika, Janubiy Osiyo, Janubiy Sharqiy Osiyo, Janubiy Amerikaning bir qancha davlatlari).



Insonning fitrati shunday, inson qanchalik qulaylikka intilgan sari unda oilaviy munosabatlarga nisbatan e'tibor shuncha kamayaveradi. Insonlarning ma'lum bir mashgulot bilan doimiy band bo'lishi insonlarni tinimsiz aylanadigan g'ildirak ichiga solib qo'yadi va bu qolipdan chiqish imkoniyati borgan sari qiylnlashaveradi. Bunga bugungi kundagi kapitalistik rivojlanish ham sababchi qisman. Chunki kapitalizmning eng yomon tomoni bunda boy inson boyib ketaveradi, kambag'al inson, kambag'allashib ketaaveradi. Bunda

ma'lum muddat davlat gurkirab rivojlanishi mumkin, ammo bu uzoqqa cho'zilmaydi. Davlatda tez suratda o'sgan iqtisodiyot, siyosat, harbiy tizim va hakazolar jamiyat orqaga ketishi bilan, demografik inqiroz bilan bu sohalarning har biri orqaga ketishni boshlaydi. Bu holatda davlatlar quyidagicha yo'l tutishadi;

**1) Ko'plab muhojirlarni qabul qilish orqali.** Amerika nima uchun bugungi dunyoda yirik yetakchi chunki yiliga minglab muhojirlarni qabul qilishi aholining aniq bir etnik guruhi mavjud emasligi va yillar davomida qonlarning aralashuvi Amerikada har bir sohani me'yorida ushlab turishga yordam beradi. Ammo bu usulning ham bir qancha salbiy ta'siri mavjud. Agarda muhojirlar soni tahmin qilingandan, yoki rejalashtirilganda ko'payib ketsa bu mamlakatda turli xil huquqbuzarlik va boshboshdoqlikni keltirib chiqaradi, bundey vaziyatda siyosiy liderlarning mahorati davlat boshqaruv aparatlarining kuchli ishlashigina vaziyatni barqarorlashtirishga olib kelishi mumkin. Shu o'rinda yana savol tug'iladi, Davlatda turli milliy va etnik tarkib shakllangan bo'lsa, hokimyat jamiyatni qandey birlashtirib turibdi? Har qandey svlizatsiya har qandey davlat rivojlanishi uchun unga albatta qandeydir bir xavf kerak boladi, bir konkurent kerak bo'ladi. Qachon davlatda unga nisbatan xavf qolmasa, raqib qolmasa, davlat ichidagi jamiyat bo'linishni boshlaydi va mamlakat tanazzulga yuz tutadi. Amerika tarixiga nazar tashlasak sovuq urushidagi SSR bilan raqobat va undan keying bugungi kungacha Xitoy bilan yoki v.hlar... Qisqacha qilib aytganda Amerika har doim o'ziga raqib yasay oladi va bu unga muhtoj. Shuning uchun ham u Rossiyaning bo'linib ketishidan manfaatdor emas, shuning uchun ham u Xitoyning zaiflashuvidan manfaatdor emas. Chunki juda katta turli millatlarni birlashtirish juda qiyin masala. Va ularni qandey mafkura ostida birlashtirish ham alohida juda murakkab vazifa .

**2) Xar-hil dasturlar doirasida boshqa davlat fuqarolarini qonuniy qabul qilishi.** Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlar o'z demografik muammolarini, boshqa mintaqalardagi shaxslarga garant ish ajratish yo'li bilan, yoki bir qancha imtiyozlar berish yo'li bilan xal etishmoqchi. Bunda aholining ijtimoiy, siyosiy kayfiyati hisobga olinib, davlatga tashrif buyurgan migrantlardan albatta davlat tilini bilish sharti qo'yilmoqda, agarda aholining ijtimoiy siyosiy kayfiyati salbiy bo'limganda, yevropa siyosiy elitasi bu shartlarning ko'p qismini olib tashlagan bo'lar edi.

**3) Texnologik rivojlanish orqali;** Bugun yevropa texnologik bilimlarini jamlagan holda xatto suniy muhitda embrionni rivojlantirish hamda ularni takomillashtirgan holda demografik muammoga qaysidur jihatdan yechim topishga harakat qilmoqda. Ammo bu yechim bo'la oladimi? Yoki aksincha bu falokatmi? Balkim bu tabiiy tug'ilish sonini kamaytirib insonlarning nasl qoldirish qobiylyatiga jiddiy tasir korsatar ...

Shu o'rinda davlatlarning rivojlanishini va tanazzulini yana bir omil bilan, Din omili bilan bevosita boglash mumkin. Bugun dinlarning siyosiyashuvi hamda bevosita siyosatga

u yoki bu ko'rinishda ta'sir o'tkazishi, oiladan tortib davlat xarakterigacha yo ijobiyo salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Insonlar ong sifatida shakllanib, ularning rivojlanish davrida siyosiy ong bilan bir qatorda diniy ong ham jamiyat ongingin bir shakli sifatida shaklana boshladi. Hamda mil.avv 4mingchi yillikdan boshlab hukmdorlarning ilohiyashtirihs jarayonida, ilk dinning siyosiyashuv jarayoni boshlandi. Mamlakat hayotida dinning o'rni beqiyosdir. Hantingtonning "Svilizatsiyalar toqnashuvi" kitobida Hantington Yevropa svilizatsiyasining ikki muhim jihatini aytib otadi, Yevropa svilizatsiyasining plus tomoni dunyoda bugungi kundagi shakllangan har qandey siyosiy matab(realism, idealism, liberalism, komunizm, makrsizm va h.k) aynan yevropada shakllanganligidir va Yevropaning eng katta minusi bu Yevropa svilizatsiyasi biron ta ham dinni ozida mujassamlashtira olmaganligidadir deydi . Ya'ni xristianlik, yaxudiylik, islom, buddaviylik, sintoizm, hinduizm hullas bularning hech biri yevropada paydo bolmagan. Va sharqning engg katta minusi bu ozida biron bir siyosiy matabni shakllantira olmaganligidir . Huddi shundey bugungi dunyo siyosatiga nazar tashlasak, Sharqda bugungi kungacha eng katta muammo bu davlat strukturasining, hokimyatning aniq bir sharqona korinishi yoqligi bugun sharqning suveren, ozining ogir massasiga ega bolib rivojlanishida juda katta xalaqt bermoqda. Yevropada esa bugun insonarning dindan uzoqlashuvi, va insoniyatga yod bolgan goyalarni yevropa boylab yoyilishi,nafaqat yevropa, balkim, butun dunyo boylab yoyilishi, aynan Hantingtonning asari orqali yoritish biz uchun ossonroqdir. Balkim bugun Yevropadagi oila institutidagi muammolar, demografik muammolar madaniy muammolarning hammasiga shu sababdir... Yuqorida takidlaganimiz insoniyatga yod bolgan goyalarning rivojlanishiga nima sabab boldi va bu insoniyatning tur sifatidagi maqomini yoq qiladimi degan savol tugdiradi. E'tibor qaratsaak Yevropada tarqalgan gumanizm goyasi, hamda gendr tengligi masalalari muammoning boshlangich nuqtasi bolgan desak adashmagan bolamiz. Xosh sabab nima? Sababi, gendr tengligi haqida gap kettimi, bunda mehnatning ham teng taqsimlanishi bevosita vujudga keladi, erkak va ayol jinsi ma'lum bir sharoitga yillar davomida evolyutsiya natijasida shakllangan. Ayolning va erkakning tana tuzulishi tabiatan chidamliligi ularning tashqi korinishi va hakazolar erkak va ayolga malum bir mehnat masulyatini yuklaydi, shu nuqtai nazardan ayolga yuklatilgan mehnat masulyatidan (bola tarbiyasi, maishiy ishlar..v.h) ortigi yuklatilsa bu ayollarda katta ozgarishlarga olib keladi va keldi ham. Oilada patriaxal emas balkim matrixal tizim shakllanishi erkakning oilada 2inchi darajali bolishiga olib keladi va natijada erkakning tabiiy ehtiyojlarti boshqa bir usullar orqali bartaraf etiladi. Natijada oila degan institute falaj holga keladi. Yevropada gendr tengligi hamda gumanizm goyalarining tarqalishining siyosiy tomoni, bu ishchi kuchini oshirish, ishlab chiqarishni oshirish, hamda iqtisodiy barqarorlik orqali davlatning siyosiy hamda xarbiy qudratini barqaror qilishdan iborat

bolgan. Va bularning hammasini bir formulaga soladigan bolsak, **Insoniyatga yod bolgan goyaning tarqalishi**

- 1) Gumanizm goyalari
- 2) Gendr tengligi
- 3) Mehnat taqsimoti tengligi hamda ish vaqtining haddan ziyod ortiqligi
- 4) Oilada erkak roilining pasayishi hamda aksincha ayol rolining ortishi
- 5) Erkaklarning tabiiy ehtiyojlarini, boshqa yollar orqali bartaraf etishi .

Mana shu formula bugun nafaqat Yevropa balkim Butun insoniyatni jar yoqasiga olib kelib qoydi. Bu goyaning tarqalishi ham xuddi demokratiya kabitidir. Demokratiyada qancha ochiq bolishi siyosatni yana shuncha ochiq bolishlikni xohlashga olib keladi va buning chegarasi yoq, qancha keng tarqalsa demokratiya shuncha kam. Etibor bereylik jamiyatning eng kichik qatlidan boshlangan bu yod goya Siyosat darajasigacha kotarildi. Malum davlatlar tepasiga mana shu yod goyalarni ozida mujassamlashtirgan shaxslar keldi va ular yevropa bilan qanoatlanmay qolishdi. Marketing, yumshoq kuchdan, kerak bolsa qattiq kuchdan foydalangan holda bugun sharq mamlakatlariga nafaqat sharq balkim dunyoning istalgan nuqtasiga, bevosita tasir otkazishmoqda. Yevropada oddiy holga aylangan bu goyani endi hatto siyosatchilar ham butun dunyoga tenghuquqlik Shiori ostida yoymoqdalar, xolbuki bu insoniyat uchun oxir bolishi mumkin.

#### **Xulosa:**

Yuqorida faqat o'zimizning kuzatishlarimiz va fikrlarimiz orqali qaysidur ma'noda boshqacha usulda yondashishga harakat qildik. Jamiyat darajasida, davlat darajasida, jahon darajasida oilaviy muhitning dolzarbligi, hamda oilaning inqirozi bu global muommo ekanini ochishga harakat qildik. Xususan oila jamiyatning asosiy boginidir, jamiyat esa davlatning. Shundey ekan bugun xalqaro miqyosda aynan oila institutiga jiddiy etibor bermoq, kelgusida davlatning umrini belgilab beradi. Xalq davlat hokimyatining birdan bir manbaidir. Shu nuqtai nazardan ham xalqsiz, insonlarsiz davlatlar xech qachon, uzoq muddat oz nufuzini saqlab qola olmaydi, zero davlat hokimyatining asl maqsadi ham, aynan xalq xohish-irodasini ijobat qilishdir!

#### **Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Huntington, S. P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster.
2. Farabi, A. N. (2008). *Fozil shahar ahli haqida* [On the Ideal City]. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

3. Giddens, A. (2006). *Sociology* (5th ed.). Cambridge: Polity Press.
4. Fukuyama, F. (1999). *The Great Disruption: Human Nature and the Reconstitution of Social Order*. New York: Simon & Schuster.
5. Beck, U., Giddens, A., & Lash, S. (1994). *Reflexive Modernization: Politics, Tradition and Aesthetics in the Modern Social Order*. Stanford: Stanford University Press.
6. Axadjon o'g'li, A. A., & Tursunboy o'g'li, N. J. (2023). SANOATNING YAIMGA TA'SIRINI BAHOLASH. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 290-293.
7. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHDAGI O'RNI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 271-273.
8. Axadjon o'g'li, A. A. (2023). ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING MUAMMOLARI VA YECHIMLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 333-338.
9. Azamjon o'g'li, U. A., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). Sun'iy intellekt va raqamli iqtisodiyot rivojlanishi. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 73-75.
10. Tursunboy o'g'li, N. J., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun uzoq yo'li va xitoy tajribasi. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 1, 43-47.
11. Ahrorjon, A., & Gafurov, X. (2023). IQTISODIY SIYOSATNING RIVOJLANISHIDA FISKAL VA PUL-KREDIT SIYOSATI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 310-313.
12. Otto, M., & Thornton, J. (2023). CHATGPTNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI: SUN'IY INTELLEKTNING KASBIY MEHNAT BOZORIGA TA'SIRI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 65-71.
13. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). ISLAMIC FINANCE PROBLEMS AND SOLUTIONS: Study guide. AMAZON PUBLICATION ISBN-13: 9798863282282, 1, 200.
14. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOMIY MOLIYA BARQARORLIK OMILLARI: EKONOMETRIK TAHLILLAR VA DALILLAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(9), 74-94.
15. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA'LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O'RNI. *YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR*, 2(1), 113-118.
16. Акабирходжаева, Д. Р., & Абдуллаев, А. А. (2024). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ НА РАЗВИТИЕ МИРОВОГО ФИНАНСОВОГО РЫНКА. *Экономика и социум*, (11-1 (126)), 729-739.
17. Akabirxodjayeva, D., & Abdullayev, A. (2024). TEXNOLOGIK INNOVATSIYALARING JAON MOLIYA BOZORINING RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 89-96.
18. Akhrorjon, A., & Oybek, A. (2023). SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ISLOM MOLIYASI. *Qo 'qon universiteti xabarnomasi*, 188-190.

19. Keldiboyeva, Z. M. Q., & Abdullaev, A. A. O. G. L. (2022). Inklyuziv ta'limga bo'lgan ehtiyojlar va sabablar, inklyuziv ta'limga jalb qilish. *Science and Education*, 3(11), 704-711.
20. Oybek, A., Abdullaev, A., Mavlonbekov, X., & Sharifjonov, Z. (2023). ISLOM MOLIYASIDA MUSHORAKA SHARTNOMASI. *Umumjahon fanlari bo'yicha ta'lim tadqiqotlari*, 2(1), 593-599.
21. Turanboyev, B., Abdupattayev, A., & Abdullaev, A. (2023). INFLYATSIYANING QIMMATLI QOG'OZLAR DAROMADIGA TA'SIRI. *Yosh tadqiqot Jurnali*, 2(2), 88-100.
22. Akhmadjonov, O. X. (2023). ISLOM BANK TIZIMI UCHUN SHARTNOMA HUQUQI VA ASOSIY TAMOYILLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5), 600-613.
23. Abdullaev, A. (2022). BOBUR VA BOBURIYLAR SULOLASINING JAHON SIVILIZATSIYASINING YANGILANISHIGA QO'SHGAN HISSASI. *NEW RESEARCH ON THE WORKS OF ALISHER NAVOI AND ZAHIRUDDIN MUHAMMAD BABUR*, 1.
24. Xusanovich, A. O. (2023). MALAYZIYADA ISLOMIY MOLIYA, TO'G'RIDANTO'G'RI XORIJUY INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY RIVOJLANISH O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING EKONOMETRIK TAHLILI ASOSIDA O'ZBEKISTON UCHUN TAVSIYALAR. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 7, 60-64.
25. Mulaydinov, F. (2024). Application, place and future of digital technologies in the educational system. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
26. Jumanova, S. (2024). Analysis of PISA test results in Uzbekistan and prospects of preparing primary education students for PISA test. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
27. Ikromjonovna, J. S., & Axadjon o'g'li, A. A. (2023). O'ZBEKISTONDA PISA TESTI NATIJALARI VA BOSHLANG 'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINI BU TESTGA TAYYORLASH ISTIQBOLLARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 159-162.
28. Turanboyev, B., & Abdullayev, A. (2023). DAVLAT, KORXONA VA TASHKILOTLAR BYUDJETINI TO 'G 'RI TAQSIMLASH TENDENSIYALAR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 304-309.
29. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.
30. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). The Role of WTO in Improving the Quality of Education. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.